

O‘QIB TUSHUNISH MALAKASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN TURLARINING O‘RNI

Dilshoda Isoqulova

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO ‘TAU o ‘zbek tili va adabiyoti

yo ‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarning o‘qib tushunish kompetensiyasini shakllantirishda matn va uning turlarini o‘qitishning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Unda matnning ta’limdagi asosiy vazifalari, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan matn turlari (badiiy, ilmiy, publitsistik, amaliy) hamda ularning har biri bilan ishlash metodikasi tahlil qilingan.

Abstract: This article discusses the role and importance of teaching text and its types in the formation of students' reading comprehension competence. It analyzes the main functions of text in education, the types of texts used in the educational process (fiction, scientific, journalistic, practical), and the methodology for working with each of them.

Kalit so‘zlar: o‘qib tushunish, ko‘nikma, matn, badiiy matn, tanqidiy fikrlash, topshiriq.

Keywords: reading comprehension, skill, text, literary text, critical thinking, assignment.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan zamonaviy jamiyatda o‘quvchilarga mustaqil o‘z fikrini bayon etish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini o‘rgatish zarur. Shu sababli amaldagi maktab darsliklariga o‘qib tushunish nutqiy ko‘nikmasiga oid matnlar, matnga doir topshiriq va savollar olib kiritilmoqda. Bu esa o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

O‘qib tushunish — bu matnning mazmunini anglashga doir nutqiy faoliyat turi. So‘z ma’nosini bilish va matnning ma’nosini tushunish o‘qib tushunishning muhim elementlari hisoblanadi. Ped.fan. doktori (DSc), professor Asilova Gulshan Asadovna va Fatma Aciklar o‘zining “Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish asoslari” kitobida shunday deydi: “O‘qib tushunish — matnning grafika yordamida ifodalangan mazmunini muloqot vazifasiga muvofiq qabul qilish va qayta ishlab, mazmunan anglashga doir ko‘nikma. O‘qish obyekti sifatida faqat yozma matn tushunilmaydi. Rasmlar, chizmalar, grafiklarlarda (aks etgan) axborotlarni tushunish, shuningdek, ovozlashtirilmagan videomateriallarni ko‘rib, ularda berilgan axborotlarni tushunish ham o‘qib tushunish jarayoniga kiradi.” [G.Asilova, Fatma Acik “Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish asoslari” 37-bet] G.Asilovaning fikrlariga qo‘shilgan holda shuni aytib o’tish joizki, o‘qib tushunish matnlari faqat yozma matn bilan chegaralanmaydi, ularga quyidagi matnlarni ham kiritishiz mumkin:

1. Reklama matnlari;
2. E’lon matnlari;
3. Intervyu;
4. Xabar matnlari;
5. Yo‘riqnomalar;
6. Infografika matnlari;
7. Logotipler;
8. Maktub/(e-pochta);
9. Izoh (kommentariya) matnlari;
10. Latifa va xandalar;
11. Rasmiy hujjatlar (kodekslar, moddalar, qonunlar va hk.);
12. Xaritalar va hk.

O‘qib tushunish ko‘nikmasi nafaqat matnni o‘qish, balki uni chuqur tahlil qilish va tanqidiy baholash imkonini ham beradi. Turli matn turlari — badiiy, ilmiy, ommabop, hujjatli va funksional matnlar — har xil kommunikativ maqsad, til uslubi va tuzilishga ega bo‘lganligi sababli, ularni tushunishda turlicha yondashuv va strategiyalar talab etiladi.

Masalan, badiiy matnni tushunishda obrazli ifodalar va kontekst muhim bo'lsa, ilmiy matnda mantiqiy bog'liqlik, terminlar va dalillarga asoslangan fikr yuritish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda matn turiga mos ravishda o'quvchilarga individual yondashuvni qo'llash zarur bo'ladi. Turli matn turlarini o'qib tushunishda o'quvchilarning lingvistik bilimlari, mantiqiy tafakkuri va madaniy kompetensiyasi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, funksional va hujjatli matnlar, masalan, arizalar, e'lonlar, ko'rsatmalar kabi hujjatlar aniq va lo'nda tilda yozilgan bo'lib, ulardan to'g'ri ma'lumot ajratib olish o'quvchining aniqlik va e'tibor darajasiga bog'liqdir. Bunday matnlarni tushunish uchun o'quvchi nafaqat tilni, balki matnning ijtimoiy kontekstini ham yaxshi bilishi kerak. Shu bilan birga, ommabop matnlar — maqolalar, bloglar yoki ijtimoiy tarmoq postlari — sodda tilda yozilgan bo'lsa-da, undagi bahsli fikrlar va yashirin ma'nolarni tushunish tanqidiy fikrlashni talab etadi. Namuna sifatida ko'rsatish mumkinki, yangi nashrdan chiqqan 5-sinf darsligida "So'z tilsimi" bobida atoqli otlar mavzusini tushuntirish bilan birga ismlar statistikasi keltirilgan va topshiriqlar berilgan. Bunda o'quvchilar mavzuni o'rganish orqali qo'shimcha ma'lumotga ham ega bo'lishadi. Demak, har bir matn turi o'qib tushunish ko'nikmasining turli jihatlarini rivojlantiradi va o'quvchini har tomonlama fikrlashga yo'naltiradi.

O'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda matn turining o'rni beqiyosdir, chunki har bir matn turi o'ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarga ega. Masalan, badiiy matnda o'quvchi obrazlar orqali voqeani his etadi, bu esa hissiy idrok va tasavvur doirasini kengaytiradi. Jumladan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini o'qishda tarixiy voqealar bilan bir qatorda, personajlar ruhiyati va muallifning estetik qarashlarini ham anglash talab etiladi. Ilmiy matnlarda esa tushunishni ta'minlash uchun mantiqiy izchillik, tushunchalarning aniqligi va dalillarning asoslanganligi muhimdir. Masalan, biologiya fanidan darslikdagi biror mavzuni o'qish jarayonida o'quvchi ilmiy atamalarni tushunib, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishi kerak bo'ladi. Shu bilan birga, funksional matnlar — masalan, "Yo'l harakati qoidalari" yoki "Tashkiliy farmoyish" — aniq topshiriq va ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ularni to'g'ri talqin qilish amaliy hayotda muhim ahamiyatga ega. Har bir matn turini o'ziga xos yondashuv bilan o'rganish

o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini mustahkamlab, ularni turli hayotiy vaziyatlarda o‘z fikrini aniq va asosli ifoda eta oladigan shaxs sifatida shakllantiradi.

O‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda o‘qituvchining didaktik yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida matn bilan ishlashning interaktiv usullaridan foydalanish — masalan, klaster usuli, savol-javob texnikasi, Venn diagrammasi, annotatsiya tuzish yoki “matnga savol berish” strategiyalari — o‘quvchilarning matnni chuqur anglashiga xizmat qiladi. O‘qituvchi matn turlariga qarab differensial yondashuvni qo‘llashi, ya’ni har bir matn uchun mos tahliliy topshiriqlar tuzishi zarur. Misol uchun, badiiy matnni tahlil qilishda obraz tahlili va muallif nuqtayi nazarini aniqlash ustuvor bo‘lsa, ilmiy matnlar uchun asosiy g‘oya, sabab-oqibat bog‘liqligi va xulosa chiqarish vazifalari muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning yosh darajasi, qiziqishlari va til kompetensiyasini hisobga olish orqali individual va guruhiy ishlash shakllari uyg‘unlashtirilsa, bu o‘qib tushunish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Demak, o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchini mustaqil o‘ylashga, fikr yuritishga va matnni tanqidiy idrok etishga yo‘naltiruvchi rahbar sifatida maydonga chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qib tushunish ko‘nikmasi zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, turli matn turlarini anglash va ularga mos fikr yuritish qobiliyatini shakllantiradi. Har bir matn turi o‘ziga xos semantik va uslubiy xususiyatlarga ega bo‘lgani uchun, o‘quvchidan mos strategiyalarni qo‘llashni, matnga tahliliy va tanqidiy yondashishni talab qiladi. O‘qituvchining metodik yondashuvi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish orqali o‘qib tushunishdagi xatolarni kamaytirish mumkin. O‘quvchilarda mazkur ko‘nikmani shakllantirish nafaqat ularning muvaffaqiyatiga, balki mustaqil fikrashi, axborotni saralab olish qobiliyati va hayotiy faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish umumiy o‘quv savodxonligini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Gulshan Asilova, Fatma Acik. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish asoslari. Uslubiy qo‘llanma. — Toshkent,2024.
2. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 5-sinfi uchun darslik. Mavlova.K. va b. Yangi nashr. — Toshkent,2024.
3. Yusupova Sh. Ona tili ta’limi samaradorligini oshirish va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Ped. Fan.Nom-diss. — Toshkent: TPDI,1998.-137b.